

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

FUTBOLCHILARNING O`QUV MASHG`ULOT JARAYONIDA AKRABATIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.

*Sardorbek Toxirov Shokirjon o`g`li
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Zamonaviy futbol bu atletikl o`yin va futbolchilarga qo`yilgan yuksak talablardir. Yuksak texnik-taktik mahoratga erishish uchun sportchiga avvalam bor jismoniy jihatlarni yuqori darajada rivojlantirish kerak bo`ladi.

Bugungi futbolchi harakatchan, maydonda tez fikirlaydigan va harakatlarini muvofiqlashtira oladigan sportchidir. Futbolda mahoratga erishish uchun sportning boshqa turlari: yengil atletika, suzish, harakatlari o`yinlar, og`ir atletika va akrobatika mashg`ulotlari bilan futbol masg`ulotlarini uyg`unlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so`zlar: Yumalash, umboloq, sport mahorati, yumshoq qo`nish, amortizatsiya

Maqsad: Futbolchilarni o`quv mashg`ulot jarayonida akrobatik tayyorgarligini ahamiyatini aniqlash.

Metodlar: Ilmiy metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish


Natijalar va muhokama: Akrobatik tayyorgarlik futbolchiga ser harakat va chaqqon bo`lishda yordam beradi, harakat tezligidan qo`rqmaslikka, yiqilganda va uloqtirilganda imkon qadar jarohat olmaslikka, hatto tayanchsiz holatda ham o`yin uchun zarur bo`lgan harakatlarni bajarish va maydonni erkin mo`ljalga olishni o`rgatadi. Akrobatik mashg`ulotlar shug`ullanuvchilarning miyya yarim sharidagi asab jarayonlarini harakatchanligi va tormozlanishini rivojlantiradi, bu esa katta ahamiyatga ega (bu vaqtga nisbatan harakatlarni aniq va tez bajarilishida namoyon bo`ladi). Akrobatik tayyorgarlikning ahamiyati faqatgina jismoniy jihatlarni takommilashtirib qolmay sportchilarning ahloqiy, kuchli irodali va psihologik tayyorgarligiga ham ta`sit etadi.

Futboldagi mashqlarning kompleks va ko`ptomonli harakteri sportchilarni yuksak jismoniy tayyorgarligini talab etadi. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi 2 qisimga bo`linadi: Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) va Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT). Akrobatika elementlari umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlikda ham birdek ishlatiladi. Barcha akrobatik mashqlar 3 ta katta guruhga bo`linadi: saky rashlar, muvozanatni saqlash oshib tushish mashqlari. Futbolchilarni o`quv mashg`ulot jarayonida tez – tez ishlatiladigan akrobatik mashqlar 1- rasmda ko`rsatilgan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

O`quv mashg`ulot jarayoni vaqtidagi kuzatish, musobaqa o`yinlarini ko`rib chiqish futbolchilar tomonidan nisbatan ko`p foydalaniladigan akrobatik harakatlarni aniqlash imkonini berdi:

- 180, 360° gradusga burilish;
- Yonboshga ag`darilish;
- Muvozanatni ushlab turish;
- Amartizatsiya usullari;
- Orqaga umboloq oshish;
- Ko`krak bilan ag`darilish;
- Oldinga umboloq oshish;



1-rasm. Futbolchilarni o`quv mashg`ulot jarayonida tez – tez ishlatiladigan akrobatik mashqlar.

Yonboshga ag`darilish va ko`krak bilan ag`darilish, orqaga va oldinga umboloq oshish futbol o`yinida asosan, o`yin maydonida yiqilganda yumshoq tushish uchun qo`llaniladigan usullardir. Barcha texnik-taktik usullarni muvofoqiyatli qo`llash o`z – o`zini himoya qilishsiz mumkin emas. Yiqilishlar va oshib tushishlar akrobatik nuqtai nazardan muvozanatni yoqotgan paytda o`zini himoya qilishning vositasi sifatida qaralmog`i kerak. Yiqilishlar va oshib tushishlarning turli usullaridan habardor bo`lish nafaqat sportda balki kundalik hayotda ham amaliy ahamiyatga ega. Akrobatika mashg`ulotlarning turli bosqichlarida, hatto boshlang`ich bosqichida ham o`z-o`zini himaya ko`nikmalarini samali rivojlanadi. Burulish, umbaloq oshish, sodda sekin asta

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

murakkab yiqlishlar va oshib tushishlarni bajarishlar ko`nikmalarni rivojlanishiga, buning natijasida shug`ullanuvchilarni mustaql ravishda havfli vaziyatlardan chiqolishga o`rgatadi. Futbolchilar o`z-o`zini himoyaning barcha turlaridan habardor bo`lishlari zarur.

Futbolda yumshoq qo`nish o`yinchining jarohat va shikastlanishlardan saqlaydi. Yiqilish va qulash usullarini egallash barobarida sportchilarda o`ziga bo`lgan ishonch va jur`atilik rivojlanadi. Ularni amaliyotda qo`llash esa o`yin imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dunyo yetakchi futbolchilari o`yinini tahlil qilish orqali shuni aytish mumkinki, zamonaviy futbolda nafaqat ag`darilishlar, sirpanishlar qo`llaniladi, balki qo`l va gavda amartizatsiyasi bilan qo`nish ham ijobiy natijaga olib keladi. Amartizatsiya usullari tayyorlash va bajarish uchun qisqa vaqt talab qiladi vas hu sabab ko`p qo`llaniladi.

Yiqilish va oshib tushishlarning takomillashishi bilan yumshoq qo`nish ta`minlanadi. Shuning uchun mashqlarni avval boshlang`ich holatdan bajarish kerak, so`ngra esa yugurib kelib bajarish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Akrobatika mashqlar jismoniy, ahloqiy sifatlarni tarbiyalash va takomillashtirishning eng samarali vositasidir. Akrobatik mashqlar bilan shug`ullsnish jarayonida egallangan ko`nikmalar o`zining amaliligi bilan ajralib turadi va kutilmagan hayotiy va sport vaziyatlarda qo`llanishi mumkin. Akrobatik tayyorgarlik sport mahoratini oshirish, futbolchini individual jismonan takomillshtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida o`quv mashg`ulotlar jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акробатические упражнения в подготовке футболистов/ Р.З.Исянов, Р.А.Акрамов/ Т: «Медицина»1988 г. 53 ст
2. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Mahmudjonov Asilbek Abduvokhid o`g`li. "THE ROLE OF SPORTS IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL
3. Фофуров, Абдувохид Махмудович, and Абдушокир Махмудович Фофуров. "ФИЗКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПУТИ К УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
4. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

5. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Gofurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.

6. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.

7. Abduvalievich, Abdullaev Rustamjon. "NECESSARY FORMATION OF COMPLEX COMPETENCE SAFETY OF TOURIST SERVICES DURING THE DEVELOPMENT OF A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL." Science and Innovation 2.2 (2023): 261-264.

8. Abdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.